
“Davlat xavfsizlik xizmati kubogi” musobaqasining Farg‘ona shahar bosqichiga start berildi

Bugun sportning futbol, va mini-futbol turlari bo‘yicha “Davlat xavfsizlik xizmati kubogi” musobaqasiga start berildi. Ushbu musobaqalarda shahrimizdagi 73 ta mahallalardan 16-30 yosh bo‘lgan uyushmagan yoshlar va jamoalar qatnashadi.

“Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-92-sonli qarori ijrosini ta‘minlash, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ular o‘rtasida ommaviy sportni rivojlantirish hamda sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish maqsadida tashkillangan musobaqaning hududiy bosqichi aprel va may oylarida o‘tkaziladi.

Musobaqaning ochilish marosimi Farg‘ona futbol maktabida o‘tkazildi. Unda shahar hokimi Vosiljon Nazarov, sektor rahbarlari hamda Davlat xavfsizligi xizmati viloyat boshqarmasi va shahar bo‘limi vakillari ishtirok etishdi. Tantanali ochilish tadbirida yosh sportchilarga hamda jamoalarga omadlar tilandi. Shundan so‘ng, qur‘a tashlanib 1-tur o‘yinlari o‘tkazildi.

Musobaqa g‘oliblari hamda “Eng yaxshi o‘yinchi”, “Eng yaxshi to‘purar”, “Eng yaxshi darvozabon” va “Eng yaxshi murabbiy” nominatsiyalari sovrindorlariga diplom va qimmatbaho sovg‘alar topshirilishi belgilangan.

Ta‘kidlash lozimki, Davlat xavfsizlik xizmati kubogining o‘tkazilishidan ko‘zlangan asosiy maqsad yoshlar orasida sportni ommalashtirish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, shuningdek, ularni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

2023-04-13 16:22:38